

SIFAT SO'Z TURKUMINING SEMANTIK GURUHLARI VA DARAJA
KATEGORIYASI

Gulnoza Karimova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilshunos olimlari tomonidan o'rganilgan va ilmiy qarashlari berilgan sifat so'z turkumining ma'noviy guruhlari hamda daraja kategoriyalari taqqoslandi, farqli jihatlari ko'rsatilib, ma'qul variantlar taklif qilindi.*

Kalit so'zlar: *til, konsepsiya, sifat, so'z turkumlari, tilshunoslik, semantika, ma'noviy guruh, tur, daraja, kategoriya.*

Fan uchun eng muhim hisoblangan – so'zlarni turkumlarga ajratish masalasi barcha tillarning ilmiy izlanish markazida bo'lgan. Qadimgi hind, arab tilshunoslari tomonidan ilk marta qadam qo'yilgan tilshunoslikning bu sohasida bugun barcha tillar o'zining turkumlarini ajratib olishgan.

Jahon va o'zbek tilshunosligidagi so'z turkumlari haqidagi ta'limot va qarashlarning rivojini, shuningdek, dunyo lingvistika fanidagi tendensiyalarning o'zbek tilshunosligidagi so'z turkumlari xususidagi tadqiqotlarga ta'sirini sxematik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Mahmud Koshg'ariyning so'z turkumlari haqidagi ta'limoti, XI asr, turkologiyaning asoschisi;
2. Alisher Navoiyning ism va fe'l haqidagi fikrlari, XV asrning oxiri;
3. Abdurauf Fitratning so'z turkumlari haqidagi qarashlari, XX asr;
4. 1960-yillargacha bo'lgan o'zbek tilshunosligidagi so'z turkumlari haqidagi qarashlar;
5. 1980-90-yillar boshi o'zbek tilshunosligidagi so'z turkumlari haqidagi qarashlar;
6. Mustaqillik davri o'zbek tilshunosligi. O'zbek tilshunosligidagi so'z turkumlari haqida yangicha qarashlarining shakllanishi.⁸

O'zbek tilshunosligida so'z turkumlari haqidagi ta'limotning taraqqiyotida ham Sharq, ham G'arb sivilizatsiyasining ta'siri kuchli bo'lgan. Sharq tilshunoslik maktablarining ta'siri XX asr boshlarigacha davom etgan bo'lsa, undan keyingi davr G'arb (Yevropa, rus) tilshunosligining kuchli ta'siri bilam xarakterlanadi. Mustaqillik davrida esa tilimiz so'z turkumlari tizimi mohiyatini aniq va chuqur yoritgan tadqiqotlar maydonga keldi.

Jahon tilshunosligida so'z turkumlari, xususan, sifatlar ilmiy nazariyasi o'z tarixiga ega. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham sifat so'z turkumi ancha chuqur o'rganilgan va bu sohada ko'plab muhokamaviy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

⁸ Eltazarov J. O'zbek va jahon tilshunosligida so'z turkumlarining o'rganilish tarixi (monografiya). – Samarqand: “Ipak yo'li” turizm xalqaro univertiteti, 2021. – 124 bet.

O'zbek tilida boshqa so'z turkumlari singari sifatning ham betakror xususiyatlari mavjud. Sifat so'z turkumi XX asr boshlaridan bugunga qadar ko'plab tilshunos olimlar tomonidan o'rganildi.

Bugungi maqolamizda sifat so'z turkumining ma'naviy guruhlariga to'xtalib, mazkur so'z turkumining semantik guruhi uchun aniq taklif berishga harakat qilamiz. Umuman olganda, barcha olimlarning sifat so'z turkumi haqidagi qarashlari turlicha bo'lib, maktab darsliklarida ham farqli qonuniyatlar berilgan. O'zbek tilshunosligida sifat so'z turkumiga oid bo'lgan ko'plab tilshunoslarimizning ilmiy ishlarini o'rganib chiqqan holda, quyidagi farqlarni havola etmoqchimiz.

O'zbek tilshunosligida aynan sifat so'z turkumi bo'yicha qilingan ilk katta ilmiy ish M.Sodiqovanning "Hozirgi o'zbek tilida sifat" kitobi bo'lib, u 1974-yilda nashr etilgan. Mazkur kitobda tilshunoslikda sifat so'z turkumining o'rni, tarixiy taraqqiyoti haqidagi ilmiy faktlar berilgan. Xususan, bu manbada sifat so'z turkumining semantik guruhlariga 9 guruhga va yana ichki guruhlariga bo'linuvini kuzatishimiz mumkin:

1. Xarakter-xususiyat, xossa va qimmat bildiruvchi: yoqimtoy, badjahl, muloyim, ziyrak, mahmadona, dilkash, yaxshi, yomon.
2. Holat bildiruvchi: go'zal, ko'hlik, chiroyli, suluv, latif, qomatdor, cho'loq, mayib, bukir, cho'tir, soqov, xunuk, kar, qiyshiq, bardam, baquvvat, tetik, yosh, keksa, qari, ojiz, nimjon, zaif.
3. Rang-tus bildiruvchi: kulrang, zangor.
4. Shakl-ko'rinish bildiruvchi: dumaloq, yassi, uzun, uzunchoq, yapaloq.
5. Hajm-o'lchov-masofa bildiruvchi: keng, tor, uzun, chuqur, yirik, kalta, mayda, yaqin, chog'.
6. Maza-ta'm bildiruvchi: shirin, totli, mazali, achchiq, bemaza, nordon.
7. Hid bildiruvchi: xushbo'y, qo'lansa, ifor, muattar.
8. Vazn-og'irlik bildiruvchi: vazmin, yengil, og'ir.
9. O'rin va paytga munosabat bildiruvchi: tonggi, kuzgi, kechki, keyingi, avvalgi, qishki, ertangi, yozgi, ilk, uydagi, yerdagi.⁹

O'z davri uchun mukammal hisoblangan bu ishdan keyin o'zbek tilshunosligida qator o'quv-qo'llanma, monografiyalar ilm ixlosmandlariga havola qilindi.

Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, H.Doniyorovlar hammualifligidagi "Hozirgi o'zbek adabiy tili"da sifatning ma'naviy guruhlariga 8 guruhda berilgan:

1. Xususiyat sifatleri: kamtarin, mug'ambir, sodda, quvnoq, mehribon, sho'x, ziqna, yo'rg'a, chopag'on. Bu turdagi ayrim sifatlar harakat belgisini ham bildiradi: yaxshi ishladi, muloyim so'zladi.
2. Holat sifatleri: badavlat, xursand, ma'yus, keksa, durkun, sovuq, iliq, ochiq, salqin, jimjit, tinch. Bu turdagi ayrim sifatlar ham harakat belgisini bildiradi: iliq qarshiladi, ma'yus so'zladi.

⁹ Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974.

3. Shakl-ko'rinish sifatleri: gavdali, novcha, uzunchoq, yassi. Bu turdagi sifatlar harakat belgisini bildirmaydi.
4. Rang-tus sifatleri: oq, qora, qizil, pushti, sariq, zangor. Bu turdagi sifatlar harakat belgisini bildirmaydi.
5. Hajm-o'lchov sifatleri: keng, tor, uzun, yaqin, katta, og'ir. Bu turdagi ayrim sifatlar ham harakat belgisini bildiradi:katta gapirdi, qisqa o'yladi.
6. Maza-ta'm sifatleri: shirin, achchiq, bemaza, nordon.
7. Hid sifatleri: xushbo'y, badbo'y, qo'lansa.
8. O'rin yoki vaqt sifatleri: yozgi, kuzgi, qishki, sirtqi, ichki. Bu turdagi sifatlar harakat belgisini bildirmaydi.¹⁰

Mazkur kitobda predmetning belgisini bildiruvchi so'zlarga sifat deyilishi va sifat harakatning belgisini ham bildirishi mumkinligi ta'kidlangan. Lekin sifatning asosiy xususiyati sifatida predmetning belgisini bildirishi olingan.

U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar hammuallifligidagi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida sifatning semantik guruhlarini 7 ta deb belgilashgan va ular quyidagilar:

1. Rang-tus sifatleri: qizil, ko'k, oq, sapsar, qora, pushti.
2. Xususiyat sifatleri: kamtar, sho'x, tetik, chaqqon, abjir, yaxshi, xasis, qo'rs, injiq, dadil, mehribon, mohir.
3. Shakl ko'rinish, hajm-o'lchov sifatleri: novcha, kalta, oriq, egri, qiyshiq, yassi, katta, kichik, keng, tor, og'ir, uzun.
4. Holat sifatleri: shod, xursand, go'zal, xafa, ma'yus, issiq, tinch, quruq, yosh, eski.
5. Maza-ta'm sifatleri: shirin, nordon, achchiq, sho'r, bemaza, lazatli.
6. Vaqt va o'rin sifatleri: qadimgi, bugungi, kechki, tonggi, yozgi, kuzgi, devoriy, hozirgi, avvalgi, qishki.
7. Hid sifatleri: xushbo'y, sassiq, qo'lansa.¹¹

Shuningdek, mazkur kitobda sifatlar asosan otga bog'lanib, narsaga xos belgini, ba'zangina fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini bildirishi ta'kidlangan.

R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalovlar hammuallifligidagi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida sifatning ma'no guruhleri 9 ga bo'linadi:

1. Xususiyat sifatleri: yoqimtoy, badjahl, muloyim, dilkash, yaxshi, yomon, loqayd.
2. Holat sifatleri: mazkur sifat guruhi o'z navbatida yana 10 ta ichki guruhlarga bo'linadi: tabiiy holat (go'zal, mo'min, o'ktam, cho'loq, bukri), jismoniy holat (bardam, baquvvat, tetik, yosh), ruhiy holat (xafa, g'amgin, ma'yus, xursand, shod), iqtisodiy holat (boy, badavlat, nochor, kambag'al), harorat holati (iliq, salqin, sovuq, issiq), tozalik holati (toza, ozoda, kir, musaffo, isqirt), eskilik va yangilik holati

¹⁰ Шоабдурахмонов Ш., Аскарлова М., Хожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

¹¹ Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

(yangi, esk, ko'hna, juldur), ho'l-quruqlik holati (ho'l, quruq, nam, namxush), tinch va notinch holat (tinch, jim, jimjit, sokin, osuda, osoyishta, bezovta), yetilganlik holati (xom, pishiq, g'o'r, puxta).

3. Shakl sifatleri: novcha, yassi, uzunchoq, dumaloq, yapaloq, aylana.
4. Rang-tus sifatleri: oq, qora, qizil, pushti, sariq, zangor.
5. Maza-ta'm sifatleri: shirin, achchiq, nordon, taxir, sho'r.
6. Hid sifatleri: xushbo'y, qo'lansa, badbo'y.
7. O'lchov sifatleri: keng, tor, uzun, yaqin, katta, og'ir.
8. O'rin sifatleri: ichki, tashqi, devoriy, qishloqi.
9. Payt sifatleri: kuzgi, yozgi, qishki, chillaki, ertapishar.¹²

Q.Sapayev muallifligidagi "Hozirgi o'zbek tili" kitobida sifat so'z turkumining ma'noviy guruhlari 7 taga bo'lingan:

1. Rang-tus sifatleri: qizil, ko'k, oq, yashil, sariq, pushti, qora, sapsar.
2. Xususiyat sifatleri: kamtar, sho'x, tetik, chaqqon, abjir, yaxshi, xasis, qo'rs, injiq, dadil, mehribon, mohir.
3. Shakl, hajm-o'lchov sifatleri: novcha, kalta, oriq, egri, qiyshiq, yassi, katta, kichik, keng, tor, og'ir, uzun.
4. Holat sifatleri: shod, xursand, go'zal, xafa, ma'yus, issiq, tinch, quruq, yosh, eski.
5. Maza-ta'm sifatleri: shirin, nordon.
6. Vaqt va o'rin sifatleri: qadimgi, bgungi, kechki, tonggi, yozgi, kuzgi, devoriy, hozirgi, avvalgi, qishki.
7. Hid sifatleri: xushbo'y, sassiq, badbo'y, qo'lansa.
8. Vazn sifatleri: og'ir, yengil, zil.¹³

Shuningdek, 2017-yilda nashr etilgan N.Mahmudov va A.Nurmonov hammuallifligidagi 6-sinf maktab darsligida sifatning ma'noviy guruhlari quyidagicha keltirilgan:

1. Xususiyat sifatleri;
2. Rang-tus sifatleri;
3. Maza-ta'm sifatleri;
4. Hajm-o'lchov sifatleri;
5. Hid sifatleri;
6. Makon-zamon sifatleri.¹⁴

2022-yilda nashr etilgan 6-sinf darsligida sifat so'z turkumining semantik guruhi berilmagan.¹⁵ Xususan, sifat va uning darajalari haqida kichik qoida kiritilgan. Astasekinlik bilan sifatning ma'noviy guruhlari o'zbek tilida faqatgina tilshunoslar biladigan qoidaga aylanib qolishi mumkin, bu esa juda qo'rqinchli holat. Bolaning ilk

¹² Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Курбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2009.

¹³ Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili. — Toshkent, 2009.

¹⁴ Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun/N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D.Nabiyeva. – T.: «Tasvir» nashriyot uyi. 2017.

¹⁵ Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik/ K.V.Mavlonova [va boshq.] – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.

dunyoqarashi oilada, asosiy fikr va bilim doirasi maktabda shakllanishi hisobga olingan holda, soʻz turkumlari bilan bogʻliq barcha qoidalar maktab darsliklarida boʻlishi kerak. Qolaversa, bugunning dolzarb masalalaridan biri – chet tilini oʻrganishda ham bu muhim omil hisoblanadi.

Shu sababdan, yuqoridagi tilshunos olimlarimizning sifat soʻz turkumi haqidagi fikrlarini jamlagan holda, sifatning semantik guruhlarini quyidagicha talqin qilish mumkin degan xulosaga kelmoqdamiz:

1. Rang-tus sifatlari: oq, qora, qizil, sariq, koʻk, zangor, yashil.
2. Hajm-oʻlchov sifatlari: katta, kichik, baland, past, ogʻir, uzun, kalta.
3. Maza-taʼm sifatlari: shirin, achchiq, nordon, taxir, shoʻr, mazali, bemaza, xushtaʼm.
4. Hid sifatlari: xushboʻy, muattar, sassiq, qoʻlansa, badboʻy.
5. Oʻrin sifatlari: ichki, tashqi, devoriy.
6. Payt sifatlari: kuzgi, qishki.
7. Xususiyat sifatlari: kamtar, shoʻx, tetik, chaqqon, abjir, yaxshi, xasis, qoʻrs, injiq, dadil, mehribon, mohir.

Sifat soʻz turkumi uchun xos boʻlgan yana bir muhim belgi, uning darajalana olish xususiyatidir. Sifatning daraja kategoriyalarida ham turfa fikrlar taklif qilingan. Fan doimo rivojlanishda boʻladi va barcha davrda yaratilgan ilmiy qarashlar oʻz davri uchun toʻgʻri. Sifat darajalari ham oʻzining tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ega.

Predmet, holat, hodisa va ish-harakatning turli-tuman oʻziga xos aniq va abstrakt belgilari boʻladi. Bunday belgilar meʼyor va shu meʼyorga nisbatan ortiq yoki kam, past yoki baland boʻlishi mumkin. Belgilarning bunday xususiyatlari sifatning daraja kategoriyasi yordamida ifodalanadi. Sifat darajalari, daraja yasovchi affikslar oʻzbek tilshunos olimlari tomonidan turlicha tasnif qilinadi. Tilshunos M.Sodiqovning “Hozirgi oʻzbek tilida sifat” kitobida sifat darajalari haqida quyidagicha fikr berilgan: “Sifat darajalari uch turga boʻlinadi: “Orttirma daraja” belgining ortiqligini ifoda etish uchun, “ozaytirma daraja” belgining kamlik darajasini ifoda etish uchun, “qiyosiy daraja” belgining ortiq-kamligini aniqlab koʻrsatadi”.¹⁶

Sifat darajalari haqida Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, H.Doniyorovlar hammualifligidagi “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”da quyidagicha ilmiy qarashlar ilgari surilgan: “ Darajaning bir-biriga qiyosan olinadigan uch turi bor: 1) oddiy (normal) daraja, 2) orttirma daraja, 3) ozaytirma daraja: yaxshi – oddiy daraja, juda yaxshi – orttirma daraja, yaxshiroq – ozaytirma daraja.”¹⁷

Daraja kategoriyalari U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar hammualifligidagi “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” kitobida quyidagicha talqin qilingan: “Sifatlarda daraja shakllari ikki turga boʻlinadi: 1) ozaytirma daraja, 2) orttirma daraja”.¹⁸

¹⁶Содикова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974.

¹⁷ Шоабдурахмонов Ш., Аскарлова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

¹⁸ Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalovlar hammuallifligidagi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida sifatning daraja kategoriyasi haqida quyidagi fikrlar berilgan: “ Asliy sifatda belgining darajasini ifodalashga ko‘ra uch daraja ajratiladi: a) oddiy daraja; b) orttirma daraja; v) ozaytirma daraja”.¹⁹

Q.Sapayev muallifligidagi “Hozirgi o‘zbek tili” kitobida quyidagicha keltirilgan: “Sifat darajalari belgining ortiq yoki kamligini farqlashga xizmat qiladi. Sifatlarda daraja shakllari uch turga bo‘linadi: 1) oddiy daraja; 2) ozaytirma daraja; 3) orttirma daraja”.²⁰

Shuningdek, 2017-yilda nashr etilgan N.Mahmudov va A.Nurmonov hammuallifligidagi 6-sinf maktab darsligida quyidagicha keltirilgan: “Belgining ortiq yoki kamlik jihatidan farqlanishi sifat darajalari, ana shunday ma‘no ifodalovchi shakllar esa daraja shakllari deyiladi. Sifatning quyidagi to‘rt xil darajasi mavjud: 1) oddiy daraja; 2) qiyosiy daraja; 3) orttirma daraja; 4) ozaytirma daraja”. Mazkur darslikda –roq qo‘shimchasi faqatgina qiyosiy darajaning qo‘shimchasi ekanligi ifodalangan.²¹

2022-yilda nashr etilgan 6-sinf darsligida sifat darajalari quyidagicha ifodalangan: “Belgi bildiruvchi so‘zlar darajalanish xususiyatiga ega. Sifatning to‘rt xil darajasi mavjud: 1) oddiy; 2) qiyosiy; 3) orttirma; 4) ozaytirma”.²²

Yuqoridagi barcha ilmiy qarashlarni o‘rganib chiqib, sifat darajalarining ikki turini taklif qilmoqchimiz: 1) orttirma; 2) ozaytirma.

Ma‘lumki, sifat darajalari belgining ortiq yoki kamligini farqlashga xizmat qiladi. Eng avvalo, sifat darajasi deb qaralgan oddiy daraja aslida darajalik maqomiga ega bo‘la olmasligi haqidagi fikrni bayon etmoqchimiz. Belgining me‘yordan kam yoki ortiqligi darajalanish xususiyati bo‘lganligiga nisbatan olinsa, oddiy daraja me‘yorda turgan belgini bildiradi. Demak, sifat darajalaridan oddiy darajani sifatning me‘yoriy shakli deb talqin qilishimiz kerak, nazarimizda.

Qiyosiy darajaga to‘xtalsak, qiyoslanish kamlik yoki ko‘plik orasida yuz beradi. Masalan, Azizning olmasi kamroq, Lazizning olmasi ko‘proq. Ko‘p va kam narsaning bir-biriga taqqoslanishi natijasida qiyosiylik yuzaga keladi. Xususan, Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, H.Doniyorovlar hammuallifligidagi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida ta‘kidlanganidek: “Sifatlarning darajasi oddiy darajaga nisbatan belgilanadi. Bir predmetning belgisi ikkinchi bir predmetning belgisiga qiyosan olinishi mumkin. Bunda birining belgisi ortiq, biriniki kam bo‘ladi: temir yog‘ochdan og‘ir, u sendan kuchli kabi. Lekin bunday ifodalanish darajaning maxsus turi bo‘la olmaydi”.²³

¹⁹ Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Курбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2009.

²⁰ Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili. — Toshkent, 2009.

²¹ Ona tili: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinfi uchun/N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. – T.: «Tasvir» nashriyot uyi. 2017.

²² Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik/ K.V.Mavlonova [va boshq.] – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022.

²³ Шоабдраҳмонов Ш., Аскарлова М., Ҳожиев А., Расуллов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

Ilmiy qarashlar, ilmiy nazariyalar, ilmiy teoremlarda abstraktlik qancha kam bo'lsa, ilm oluvchi va beruvchi uchun manfaatlilik ham yuqori bo'ladi. Ko'p davrlar mobaynida –roq qo'shimchasi ham muammoli vaziyat yaratdi, qiyosiy yoki ozaytirma darajadan aniq biriga tegishli emasligi bois ko'pgina bahslar ham yuzaga keldi. U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar hammuallifligidagi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobda –roq qo'shimchasi xususida quyidagicha fikrlar bildirilgan: "–roq ba'zan predmet belgisining nisbiy ortiqligini ko'rsatadi. Bunda chog'ishtiriluvchi narsaning nomi chiqish yoki jo'nalish kelishigida bo'lib, ko'ra, qaraganda, nisbatan so'zlari bilan birga keladi: Po'lat temirdan qattiqroq. Karim kursimizda hamma studentlarga qaraganda kattaroq kabi. Bunday konstruksiyalarda belgining ortiqligi chog'ishtirilgan ikki predmetdagi belgining o'zaro munosabati asosida ifodalanadi. Ammo –roq affiksi shunda ham belgining umuman oddiy darajaga yetmaganligini, undan bir oz kamligini bildiradi: Kunlar o'tadi sekin, yigit ketadi uzoq, ...Lekinyorga tuyular avvalgidan yaqinroq (H.O.)".²⁴

Xulosa o'rnida, alohida "orttirma" va "ozaytirma" sifat darajalari bor ekan, qiyosiy darajaga ehtiyoj yo'q deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Eltazarov J. O'zbek va jahon tilshunosligida so'z turkumlarining o'rganilish tarixi (monografiya). – Samarqand: "Ipak yo'li" turizm xalqaro univertiteti, 2021. – 124 bet.
2. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
3. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun/N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. – T.: «Tasvir» nashriyot uyi. 2017.
4. Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik/ K.V.Mavlonova [va boshq.] – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
5. Пардаев З. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фан. ном. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2004.
6. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent, 2009.
7. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2009.
8. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974.
9. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
10. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

²⁴ Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.